

QO‘CHQOR NORQOBIL QISSALARIDA RUHIY HOLAT TASVIRI

Abdurahimova Manzura Shokirjon qizi
FarDU, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada psixologik va psixofiziologik holatlarning o‘rganilishi yozuvchi Qo‘chqor Norqobilning afg‘on urushining insoniyat boshiga olib kelgan baxtsizliklariga bag‘ishlangan qissalari misolida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: psixologiya, psixofiziologiya, jest, mimika, gallyutsinatsiya, obraz, ruhiyat

Ma’lum bir davr va uning vakillari haqida qiziqarli shuningdek, muhim voqealarni to‘xtovsiz so‘zlash mumkin, ammo voqealarning shunchaki bayoni badiiy asar darajasiga ko‘tarilishi uchun ijodkor turli badiiy tasvir vositalardan foydalangan holda voqealar bayonini san’at asari darajasiga olib chiqadi. Asardagi badiiy obraz xarakterini chuqur va to‘liq ochib berishda muallif badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda psixologik tasvir vositalardan ham foydalandi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish, obraz ruhiy olamingning batafsil tavsifi, qalb kechinmalarining tasviri – “badiiy psixologizm” deb yuritiladi. Psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologiya kabi atamalar bilan bog‘liq. A.B.Yesin ta’biri bilan aytganda, badiiy psixologizm – bu asar personajining hayolot olami, fikrlari, mulohazalarining o‘ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to‘liq, batafsil va chuqur ifodalab berish. Hozirgi o‘zbek qissachiligi, unda yuz berayotgan janriy izlanish va yangilanishlar yaratilayotgan qissalardagi qamrov ko‘laming kengligi, shakl va mazmundagi yangi jihatlari hamda rang-barangligi bilan istiqlol davri o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega. “Qissa turlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga tayanilgan holda istiqlol davri qissalari mavzu-mundarijasi va qo‘yilgan muammo nuqtai nazaridan quyidagi turlarga ajratildi: 1) biografik; 2) lirk; 3) sarguzasht-detektiv; 4) satirik; 5) esse-qissa; 6) dramatik qissa; 7) kinoqissa; 8) maktub-qissa; 9) monolog-psixologik qissa; 10) urush qissalari”¹. Biz ushbu ishimizda e’tiborimizni urush qissalariga qaratganmiz.

Qissa o‘zbek adabiyotida yozuvchilar tomonidan eng ko‘p qo‘l urilgan janrlardan biri bo‘lib kelmoqda. Qissa ma’rifiy-tahliliy sifatlarni o‘zida jamlashi va janr tizimi tarkibidagi turli-tuman munosabatlar: voqealar bayonidagi qat’iy anqlik va hujjalilikka intilish, inson tasvirida roman va hatto epopeya amalga oshiradigan vazifalarni ham gardaniga olmoqda. Har qanday yangi davrni olmang, qissa o‘ziga xos, mustaqil, original darajada mazmundor va murakkab tarkibli, ammo o‘z tabiatiga sodiq – kitobxonni hikoya qilinayotgan voqealarning chinligiga ishontirish barobarida insonni bilish, anglash, anglatish odatini ham tark etgani yo‘q.

¹ Эшниязова А. Истиқлол даври ўзбек қиссачилиги ва Хуршид Дўстмуҳаммад ижодининг қиёсий-типовологик тадқики. Филол.фанл. б-ча фалсафа доктори PhD дис.автореф. – Тошкент, 2020. – 12- б

Inson ichki dunyosini tasvirlash – psixologizm – bu obrazni qurish, tasvirlash, u yoki bu hayotiy xarakterni tushunib yetish va baholash usuli². Psixolgizm bevosita-muallif mulohazasi yoki qahramonlarning o‘z-o‘zini tahlil qilishi shaklida va yoki bilvosita – qahramonlar mimikasi, hatti-harakatini ko‘rsatish shaklida bo’ladi. Ruhiy tahlil hodisasi qanchalik qadimiy, doimiy, sirli bo‘lsa-da, insoniyatning alohida shaxs kechinmalariga munosabati tarixi, erishilgan tajribalari yuzasidan ko‘plab izlanishlar olib borish mumkin. Qissa janri shunday tahlil uchun munosib maydon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida qissa janriga bagishlangan ilmiy ishlarning salmogi anchagina. Chunonchi, A. Rasulov o‘zbek qissalaridagi yoshlar xarakteri muammosini, A. Rashidov O‘zbek povestida mehnatkash inson obrazi masalasini, K. Tagmatov qissachilikda qahramon ma’naviy olamini yoritish yo‘lidagi badiiy izlanishlarni tadqiq etdilar³.

Adabiyotshunos A.Xolmurodovning “Qissada badiiy obraz yaratish mahorati” nomli monografiyasining bitta fasli “Qissada psixologizm” deb atalgan. Unda psixologizm sifatida faqat inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat, peyzaj tasviri o‘rganilgan xolos. Bir qarashda qissa janri boyicha deyarli barcha muammolar o‘rganib bo‘lingandek ko‘rinadi, ammo hozirgi o‘zbek qissachiligidagi psixologizm va psixofiziologik tasvir muammosi keng ko‘lamda o‘rganilmagan. Ayniqla urush tasviri aks atgan qissalarda ruhiy holat masalasi tadqiqotga asosli mavzu bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz.

Urush mavzusiga keladigan bo‘lsak bu mavzu ham adabiyotshunoslardan asosiy organish ob’ekti bolib xizmat qilmoqda. Biz e’tiborimizni afg‘on urushida bevosita qatnashgan, har bir voqeanning jonli guvohi bo‘lgan ijodkor qissalariga qaratmoqchimiz. Afg‘on urushi haqida gap ketganda sevimli yozuvchimiz O’tkir Hoshimovning quyidagi gaplarini esga olish o‘rinli. Suhbatlaridan birida yozuvchi bu xususida shunday deydi: “Sho‘ro zamoni oxirlab qolgan kezlar edi. Bir tomonda bemaqsad Afg‘on urushi boryapti. Ikkinchi yoqda “o‘zbek ishi” bahonasida xalqimiz boshida qatag‘on qilichi o‘ynayapti. Bir kuni Afg‘ondan, bir kuni mamlakat ichkarisidan askar yigitlarimizning “temir tobuti” kelib turibdi. Xuddi dahshatli tush kabi... ”²

Ijodkorlar yaratgan asarlar o‘zining xilma-xilligi, mavzu jihatdan turfaligi bilan ajralib turadi. Ijodkor yartagan san’at asarida yaratuvchining mahoratiga qoyil qolishimiz kerak. Ayniqla, so‘z sanatkorlarining bu boradagi xizmatlari beqiyos. Ko‘ngilning eng nozik nuqtalarigacha kirib borish, kitobxon

² Boboxonov. M.R.Hozirgi o‘zbek qissachiligidagi psixologizm. Avtoreferat; Toshkent-2012.-b-5

³ Расулов А. Характер молодёжи в современных узбекских советских повестях: Дисс.. канд.филолг наук; т-1966. Рашидов А. Проблема духовно нравственного становления героя в узбекской повест о рабочем классе. Дисс...канд. филолг наук: Т-1981. Тагматов К. Нравственные поиски в узбекской повест. Дисс.. канд филолг наук Т-1983. Тащпулатов Г. Нравственные поиски современных узбекских повести. Дисс.. канд филолг наук: Т-1993.

ruhiyatiga qahramonlar o‘y-kechinmalari bilan tasir eta olish ijodkordan katta mehnat talab etadi. Asar qanchalik qisqa bo‘lmasin, yozuvchi bitta nuqtada kerakli va aniq mazmunni ohib berishi kerak. Ana shunday insonshunoslikning barcha nuqtalarini mukammal o‘zlashtirgan, qahramonlari ruhiyatini aniq va ravshan yoritib bera olgan ijodkorlardan biri Qo‘chqor Norqobil o‘z ijodiga tamal toshlarni qissa va hikoyalar orqali qo‘yadi. Adib epik va lirik janrlarda birdek ijod qilgan bo‘lsa-da, qissalarida yozuvchi mahorati ko‘proq ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asarning estetik ta’siri, yozuvchining inson ruhiyatiga, uning jismoniy xatti-harakatlarini jesti va mimikasi orqali real ifodalash yondashuvi dunyo ilmiy-nazariy tajribalari hamda milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz asosida olimlar tomonidan o‘rganilgan. Badiiy adabiyotning asosiy qahramoni – insondir. Ana shu qahramon ichki kechinmalarini uning tashqi qiyofasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tasvirlash psixofiziologik tahlil usullaridan biridir. Adabiyotshunos M.Qo‘chqorova esse, hikoya va qissalar haqida fikr yuritar ekan, “Hozirgi o‘zbek nasrida inson ruhiyatini kashf etishda adiblarimiz turfa xil psixologik tasvir vositalaridan, chunonchi, tush, xotira-xayol, ichki va tashqi monolog, dialog, polilog, muallif bayoni, peyzaj, psixologik tasvir, qahramonlarning mimika va jestlari, illyuziya, gallyusinatsiya, egizak obrazdan keng foydalanishmoqdaki, bular barchasi tadqiqotchilarimizdan yangicha nigoh bilan tadqiq etishni talab etmoqda”, degan xulosaga keladi.⁴

Ana shunday ruhiy holat masalasi yozuvchining “Daryo ortidagi yig‘i” qissasida ohib berilgan. Yozuvchi urush davri voqealarini boshqa ijodkorlar asarlaridan farqli holda tasvirlaydi deya olmaymiz, lekin qahramon ichki ruhiy holati aniq ko‘zga ko‘rinib turadi deyish mumkin. “Daryo ostidagi yig‘i” qissasida adib o‘zining urushda boshidan kechirganlarini tasvirlaydi. Bunda safdoshlarining o‘limi, umuman olganda, urushdagi vaziyatlar uning ruhiy holatiga qattiq ta’sir qiladi. Bu qissada komandir va Andrey o‘rtasidagi qisqa suhbatda ularning ruhiy holatidagi taranglikka guvoh bo‘lamiz. Ular to asar so‘ngiga qadar urush maydonida jang qiladi.

- O‘rtoq leytenant! Hozir biz ketayotgan mashina minaga tushib, barimiz o‘lib ketsak, ittifoqdagilar nima deb xotirlashadi,- kinoya bilan so‘radi Andrey Bochkaryov.
 - Albatta, og‘ir janglarning birida portlab ketishdi, qahramonlarcha halok bo‘ldilar, jasurlik ko‘rsatdilar, deyishadi- deb kesatdi ukrain Yuxumuk.
- Komandir bosh egdi. Gapimizdan iztirob zohir yuzida qahrli jilmayish paydo bo‘ldi. Bu yig‘i bilan barobar edi.⁵

⁴ Qo‘chqorova M. Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari. – Toshkent: Muharrir,

2011. – B.173.

⁵ Norqobil Q. Osmon ortidagi yig‘i: Toshkent;,1994,12-bet

Yozuvchi inson xarakterining biror jihatini gavdalantirishni maqsad qilib qo‘yar ekan, uning xususiyatlarini ochishga xizmat qiladigan mana shunday dialog va psixofiziologik vositalarga murojaat etib boradi. Obrazni tasvirlash jarayonida bu murakkab holatning ishonarli chiqishini ta‘minlash uchun san’atkor katta bilim va tajribaga ega bo‘lishi lozim⁶. muallif voqealar tasvirida ularning tabiiy oqimini saqlashga intiladi. Asar voqealari zamirida salmoqli umumlashmalar, insonlar hayotining muhim tomonlarini ifodalovchi teran fikrlar mavjud. Muallif birinchi navbatda inson shaxsi, uning ruhiy dunyosi manzaralarini ustalik bilan chizadi. Ikkinchidan, urush atalmish ofatni qoralaydi, uning g‘ayriinsoniy mohiyatini ohib beradi. Yuqoridagi parchada urush qatnashchisi Andrey Bochkaryovning mina qo‘yilgan hududda qolib ketgandagi ruhiy holati berilgan. Andrey garchand o‘z xohishi bilan urushga kelmagan bo‘lsa-da, urushda nom qozonib qahramon bo‘lishni xohlardi. U zabitga qarab “O‘rtoq leytenant hozir biz ketayotgan mashina minaga tushib barimiz o‘lib ketsak, ittifoqdagilar nima deb xotirlashadi” deb kinoyali gapiradi. Unga javoban: og‘ir janglarning birida portlab ketishdi, qahramonlarcha halok bo‘ldilar, jasurlik ko‘rsatdilar deyishadi deb kestadi ukrain Yuxumik. Bu holatga komandir bosh eggani, zohir yuzida qahrli jilmayish paydo bo‘lgani qahramonning haqiqiy psixofiziologik holatidir. Bu holatda komandirning yuzidagi qahrli jilmayish yig‘i bilan barobar deydi. Urush dahshatini va asar qahramonining ruhiy holatida bo‘layotgan o‘zgarish bizni kitobxon ruhiyatini ham o‘zgartirib yuboradi. Urush qatnashchilari noilojlikdan jilmayayotgani yig‘i bilan barobar ekanining o‘zi urush davri voqealarini ko‘z oldimizda jonli gavdalantirib turibdi. Bunday tasvir vositalarini qo‘llash orqali qahramonning ichki va tashqi ruhiy holatini yana-da aniqroq tasvirlab berish, yozuvchi Qo‘chqor Norqobilning badiiy mahoratidir.

Adib asarlarda urushni tasvirlash jarayonida o‘quvchining hissiyotga berilmasligi imkonsiz. Qo‘chqor Norqobil shaxsan o‘zi urushda qatnashgani uchun uning asarlari jonli, real va butun tasvir aynan hayotiy bo‘lganligi sababli kitobxonlarni qiziqtiradi. Urush maydonida qon kechgan ijodkor uchun aynan shu mavzuda asar yozish, go‘yoki urushni qayta kechirgan bilan barobar. Ushbu mavzuda asar yozish unga qanday ta’sir qilishi unga savol berilganda, u dastlab “Daryo ostidagi yig‘i” asarini urushdan qaytgan yili yozganini, ammo davom ettira olmaganini aytadi. Dastlabki yozganlari oxiriga yetkizilmagani va deyarli bir yil davomida yoza olmaganini eslab o‘tadi. Ammo ichida kechayotgan og‘riqlar va alamlar uni yozishga undaydi.

Badiiy ijodda ruhiy tahlilning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Har qanday badiiyasarning darajasi unda inson qalbi haqidagi haqiqat qay yo‘sinda, qanday

⁶Y.Solijonov. Mo‘jizalar sehri,Toshkent; Adib nashri 2013-90-b

ifoda etilgani yoki tasvirlanganligiga ko‘ra belgilanadi. Badiiy asarlar markazidagi inson qiyofasi uning ruhiyati tahlili orqali ochib beriladi. San’atkor-ijodkorlar yaratgan asarlarga e’tibor qaratilsa, jahon adabiyotining yetuk durdonalari sanalmish asar mualliflari ruhshunosinsonshunos sifatida qalam tebratganliklarining guvohi bo‘lish mumkin Mazkur qissa orqali muallif afg‘on urush odamlarining ruhiy holatini psixofiziologik vositalar orqali yanada kitobxonga yaqin qilib tasvirlab bergen. Yozuvchi ijodidagi bu mahoratni asarni o‘qigan har bir kitobxon o ‘z tuyg‘ulari bilan teran anglab olishi ayni haqiqatdir.

Xulosa qilib aytganda, qahramon ruhiy holati va xarakterini ochib berishda psixofiziologik vositalarining ahamiyati katta ekanligi bugungi kun adabiyotshunoslar tomonidan alohida ta’kidlanmoqa.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboxonov.M.R.Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm. Avtoreferat; Toshkent-2012.-b-5
2. Расулов А. Характер молодёжи в современных узбекских советских повестях: Дисс.. канд.филолг наук; т-1966.
3. Рашидов А. Проблема духовно нравственного становленни героя в узбекской повест о рабочем класс. Дисс...канд. филолг наук: Т-1981.
4. Тагматов К. Нравственные искания в узбекский повест. Дисс.. канд филолг наук Т-1983.
5. Тащпулатов Г. Нравственные искания современных узбекских повести. Дисс.. канд филолг наук: Т-1993.
6. Y.Solijonov. Mo‘jizalar sehri,Toshkent; Adib nashri 2013-90-b
7. Norqobil Q. Osmon ortidagi yig‘i: Toshkent;,1994,12-bet